



INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA O‘SMIR BOLALAR LATIFALARINING SOTSIOLINGVISTIK XUSUSIYATLARI

*Temirova Feruza Oybek qizi,
Navoiy davlat pedagogika
insituti tayanch doktoranti.
Email: f-temirova@list.ru*

Annotatsiya. Mazkur maqola ingliz va o‘zbek tillarida o‘smir yoshidagi bolalar latifalarining sotsiolingvistik xususiyatlarini ochib beradi. Muallif tomonidan ikki tilda latifalar ko‘rsatilib qiyosiy tahlillar olib borilgan.

Kalit so‘zlar. Latifa, sotsiolingvistika, o‘smirlar, gender xususiyatlar, yumor, ishora, sarkazm, satira.

O‘zbek va ingliz tilidagi bolalar latifasini turli yosh guruhlarga bo‘lib tahlil qilish dolzarb sanaladi. Chunki, latifalar turli yoshdagilar uchun turlicha anglashiladi. Latifalarni sotsiolingvistik tahlil qilish, ayniqsa, ularni bolalar nutqida sotsial xoslanishi, ulardagi til birliklarini muloqot madaniyatidagi ko‘rinishi va turli ijtimoiy guruhlarda latifalarning siyosiy, madaniy, ma‘rifiy ahamiyatini o‘rganish o‘z tahlilini kutayotgan masala hisoblanadi. O‘smir yoshdagi bolalar 13 yoshdan 17-18 yoshgacha bo‘lgan davr hisoblanadi. O‘smirlik bolalarning kattalar olamiga o‘tadigan davri bo‘lib, bu davr bolalarda keskin va murakkab kichadi. Bolalar bu davrda barcha narsani o‘rganishga, bilishga qiziqishadi. Ular o‘qiydigan, mutolaa qiladigan manbaalar esa ularning aqliy kamol topishiga, shaxsiy rivojlanishida muhim o‘rin egallaydi. Ularda shaxsiy fikrlash, mulohaza yuritish, jamiyatdagi turli jarayonlarni kuzatib, to‘g‘ri tahlil qilishda badiiy adabiyotning ta‘siri beqiyosdir. O‘smirlar mutolaasida yumorning o‘rni ham ahamiyatlidir. Latifalarning qisqaligi, yumorga boyligi, syujetning murakkab emasligi o‘quvchini o‘ziga jalb qiladi. Bu yoshda o‘quvchilar bemalol barcha mavzudagi latifalarni anglay oladilar, mazmun-mohiyatini tushuna oladilar. O‘smir yoshdagi bolalar latifasini **do‘stlar orasidagi munosabatlar, jamiyatdagi muammolar, gender munosabatlar hattoki siyosiy va diniy** mavzudagi latifalar tshkil etadi. Chunki bu yoshda bolalar barcha mavzular haqida mulohaza yuritishga, anglashga qodir bo‘ladilar. Bu fikrga qo‘shimcha tarzda rus olimlarining quyidagi xulosalarini keltirishimiz mumkin: “latifalar bolalar folklorining hajviy janrlaridan biri bo‘lib, bolalar latifasi aynan bolalar tilidan hosil bo‘lgan deyish noto‘g‘ri, bu kattalar repertuarining bolalarga tegishli qismi deb qarash kerak. 4 yoshdan 9-10 yoshgacha bo‘lgan bolalar latifasi kattalar latifalarining repertuaridan farq qiladi. Bu yoshdan katta bolalarga esa kattalar latifasi repertuarlaridan taqdim etish mumkin”[1, 26-28]. Haqiqatda, bolalar latifasi va kattalar latifasi mavzusi, ko‘lami jihatdan bir-biridan farq qiladi. bolalar latifasi dunyoni mifologik ko‘rinishda aks ettiradi undagi qahramonlar majoziy obrazlarda gavdalanadi. Katta yoshdagi bolalar latifasini tahlil ostiga oladigan bo‘lsak, ular reallikdan iborat ya‘ni jamiyatdagi mavjud hodisa jarayonlarning badiiylashgan yumoristik tasviriga o‘xshaydi. Masalan,

Maktab o‘quvchisi ustozidan so‘rabdi:



- Ustoz, o‘zbek tiliga rus tilini qo‘shib gapirish mumkinmi?

Ustoz javob berdi:

- “Konechno” mumkin emas! [2, 23].

Til bilan bog‘liq muammolar ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lganligi bois, muammo yumor orqali aks ettirilgan. Latifaning mohiyati bolalar darhol tushunishadi. Bu kabi latifalarni bolalar mutolaasidagi o‘rni katta ular bu yoshda jamiyatni anglay boshlaydilar. Undagi muammolar, kamchiliklar va ularning yechimi bolalarni befarq qoldirmaydi. Latifalar esa aynan shunday xususiyatga ega ijtimoiy muammo ko‘tarilib, insonlardagi illatlar tanqid ruhi ostida ifoda etiladi. Masalan mana bu latifada ham fikrimiz dallillanadi:

- Nimaning terisi qalin?

- Timsoh, fil, tuyaning terisi.

- Ulardan ham qalin terili mavjudot bormi?

- Bor: chayqovchi, xushomadgo‘y va dangasaning terisi ularninkidan ham qalinroq bo‘ladi[3, 264].

Latifada insonlarga xos yomon xulq, illatlar “xushomadgo‘ylik”, “dangasalik” tanqid ostiga olinadi. Yoki biror kasb “chayqovchilik” kasbi tilga olinib, ba’zi bir insonlarning kasbini suiste‘mol qilishi nazarda tutilgan. Hayotda uchrab turadigan holat: “olib sotarlik” ba’zi olib sotarlar mahsulotni olgan narxidan bir necha barobarga qimmatroq sotishi, bunga o‘xshash holatlar latifalarda qattiq qoralanadi. Aynan o‘zbek xalqi latifalariga xos xususiyat “tanqid”, uning maqsadi esa jamiyatda insonlarni bu kabi illatlardan qaytarishdir. Quyidagi latifada ham hajv orqali falsafiy qarashlar aks etgan:

Kibrga berilgan oq rang qora rangni kamsitibdi

- Hoy qoravoy namuncha tasqara bo‘lmasang? Rang deganlari ham shunchakar xunuk bo‘ladimi?!

- Ehtiyot bo‘l senga salgina dog‘ tegsa ranging buzilib ketadi. Menga esa farqi yo‘q[4, 16].

Latifa orqali “kibrga berilib nomiga dog‘ tushirmaslik” eslatib o‘tilgan. Bunday holatlar, muammolar inson hayotida tez-tez uchrab turadi. Bu orqali insonlarni **odob-axloqqa, sergaklikka va to‘grilikka** yo‘naltirish maqsad qilingan. Latifalarning vazifasi ham aslida mana shu.

Ingliz tilidagi latifalar tahlilini ko‘rar ekanmiz, o‘smirlik davri ingliz latifalari bolalarning yoshiga monand biroz qaltis, emotsional ta’siri kuchliroq ekanligini guvohi bo‘ldik. “Ingliz tilidagi latifalar universal, ular hayotning barcha jabhasini qamrab oladi. Ingliz tilidagi anekdotlar bolalar, kattalar, insonlarga xos xarakter xususiyatlar, kasbga oid ijtimoiy hazillar yoki mashhurlarning hayotidagi hodisalardan iborat. Ba’zida hazillar tajavuzkor xarakterga ega bo‘ladi[5, 44].” ingliz tilidagi latifalar ham o‘zbek tilidagi latifalardek ikki xil lingvistik va madaniy elementlar qorishmasidan iboratdir. Chairu D.ning fikricha, latifalarni anglay olish uchun bilim kerak. Insonlarning tarixiy, ijtimoiy, madaniy va milliy kelib chiqishiga ko‘ra hazillar turli xil bo‘ladi, ya’ni bir kishiga kulgili bo‘lgan hazil boshqa bir kishi uchun mantiqsiz bo‘lishi mumkin[6, 87]. Haqiqatda, mentalitet sabab ikki xil millat latifalari bir-biriga mos kelmasilgi mumkin. Chunki ingliz tilidagi latifalar

xususiyatiga ko‘ra **sarkazm (piching) va mazaxga** ko‘proq asoslanadi. Maqsadiga ko‘ra esa **ishora qiluvchi, motivatsiya beruvchi** turkum sifatida qaraladi. Quyida latifalarni tahlilini ko‘rib chiqamiz:

A teenage girl had been talking on the phone for about half an hour, and then she hung up.

“Wow,” said her father, “That was short. You usually talk for two hours. What happened?”

“Wrong number,” replied the girl.

Latifada o‘smir yoshdagi bolalarning xarakter xususiyatlari, odatlaridan biri aytilib yumor orqali tanqid ostiga olingan. Bunday shaxsiy xususiyatlarning tanqid ostiga olinishi o‘zbek tilidagi latifalarda ham uchraydi. Latifalar sotsiologiyistik hodisa sifatida estetik, lingvistik va psixologik xususiyatlarga ega janr hisoblanadi. Ba’zida etnik latifalarda ijtimoiy-psixologik va xarakter xususiyatlar aks etadi.

Ingliz latifalarini yanada chuqur tahlil qiladigan bo‘lsak, falsafiy ma’no mazmunga ega latifalarga ham duch kelishimiz mumkin. Masalan,

There are three companions with whom a man should always keep on good terms — his wife, his stomach, and his conscience [7, 101].

Yuqoridagi latifalar adabiy bo‘lib, latifalarning kelib chiqishi XVIII-XIX asrlarga oid. Bunday latifalar ilk marta o‘sha davr bosmasida, gazeta va jurnallarda chop qilingan hazillardan na’mana bo‘lib, latifalarda “companions” so‘zi orqali erkak kishiga doimo yondosh bo‘lishi kerak bo‘lgan uchta tushuncha haqida aytib o‘tilgan. Keyingi hazilda esa nikohning qadri aytib o‘tilgan va g‘arb jamiyatiga xos tarzda oilaviy muammolar va qiyinchiliklarga ham ishora berib o‘tilgan. Yuqoridagi latifalarda ingliz latifalariga xos barcha narsa **yumor, ishora** va **sarkazm** birga ifodalangan.

Xulosa qilib aytganda, latifalar barcha xalqlar uchun ham ahamiyatli qimmatli manbaalar hisoblanadi. unda millatning qadriyatlarini, qarashlari, turmush-tarzi, ijtimoiy-siyosiy hayoti namoyon bo‘ladi. Aslida og‘zaki nutq mahsuli bo‘lgan latifalar yillar o‘tgan sari badiiy adabiyotda yozma shaklda namoyon bo‘la boshladi. Undagi muammolar hamisha aktual, faqat zamonga moslashib, o‘sha zamon qolipiga tushib boradi. Har ikki tildagi latifalarda mavzular va maqsadlar o‘xshash, barchasining negizida to‘g‘rilikka chorlash tushunchasi yotadi. Ba’zida tajovuzkor bo‘lgan latifalar adabiy qurol sifatida ham qo‘llaniladi. Ular umrboqiy va hayotiy manbalardir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Белоусов А.Ф. Детский фольклор. Лекции для студентов-заочников. Таллиннский педагогический институт им. Э. Вильде, Таллинн, 1989.
2. “Mushtum” jurnali. Toshkent. 2024. № 6.
3. Sarimsoqov B, Yo‘ldosheva. F. Afandi latifalari. – Toshkent: 1990. Adabiyot va San’at.
4. “Mushtum” jurnali. Toshkent. 2022. № 4-5.
5. Homa Mahna. An Exploration in the language of Humor in English\\International Journal of Applied Linguistics & English Literature. Iran.



- Islamic Azad University, Tabriz Branch. Vol. 1 No. 6; November 2012.
6. Chiaro, D. (1992). The Language of Jokes: Analyzing verbal play. London: Routledge.
 7. Riddles and jokes. London: Savill and Edwakds, Printebs, Chandos-Steet. 1863.